



**O'SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARINI KELITIRIB CHIQARUVCHI
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10634017>

Raxmanova Muktaram Ergashevna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Avezov Olmos Ravshanovich

ANNOTATSIYA

Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni, unga hamma sharoitni taminlab berishni istaydi, lekin yoshligida yetarlicha mehr ko'rmagan bolalar o'smirlilikda jinoyat qilishga ko'proq moyil bo'lishadi. Bu jarayonda o'smirlar tarbiyasidagi salbiy og'ishga olib keluvchi omillar va ushbu omillarga qarshi kurashish lozim. Ushbu maqolada o'smirlarda jinoyat motivlarni keltirib chiqaruvchi omillar, o'smirlilik davrida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlar, o'smirlarda jinoyat sodir etilishining oldini olish uchun qaratilgan ishlar haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar

ota-ona, o'smir, motiv, jinoyat, psixologik omillar, yoshlar, kadr, jamiyat, xususiyat, xulq-atvor, shaxs, oila, tarbiya, hissiyot.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ,
ПРОВОЦИРУЮЩИЕ ПРЕСТУПНЫЕ МОТИВЫ У ПОДРОСТКОВ**

Рахманова Муктарам Эргашевна

Магистрант Азиатского международного университета

Научный руководитель: Аvezов Алмаз Равшанович

АННОТАЦИЯ

каждый родитель хочет оградить своего ребенка от различных проблем, обеспечить ему все условия, но дети, которые не получают достаточной привязанности в раннем возрасте, более склонны к преступлениям в подростковом возрасте. В этом процессе необходимо учитывать факторы, приводящие к негативным отклонениям в воспитании подростков, и бороться с этими факторами. В данной статье представлена информация о факторах, провоцирующих преступные мотивы у подростков, о психологических изменениях, происходящих в подростковом возрасте, о работе, направленной на предупреждение совершения преступлений у подростков.



Ключевые слова

родитель, подросток, мотив, преступность, психологические факторы, молодежь, персонал, общество, характеристика, поведение, личность, семья, воспитание, эмоции.

**SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS THAT CAUSE CRIMINAL
MOTIVES IN ADOLESCENTS**

Raxmanova Muktaram Ergashevna

Master of Asia International University

Scientific leader: Avezov Olmos Ravshanovich

ANNOTATION

each parent wants to protect their child from various problems, provide him with all the conditions, but children who do not have enough affection at a young age are more prone to commit crimes in adolescence. In this process, it is necessary to combat the factors that lead to a negative deviation in the upbringing of adolescents and these factors. This article covers the factors that trigger criminal motivations in adolescents, psychological changes that occur during adolescence, and work aimed at preventing the occurrence of crimes in adolescents.

Key words

parent, teenager, motive, crime, psychological factors, youth, frame, society, trait, behavior, personality, family, upbringing, emotion.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan boshlanganini ko'ramiz.

Bu jarayon nafaqat hozirda, balki mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlardan boshlangan deyishimiz mumkin. Mustaqillikning ilk yillaridan davlatimiz rahbariyati tomonidan o'smir yoshlarning har tomonlama yetuk, sog'lom va kamol topdirishga e'tiborini qaratdi. Shu o'rinda huquq- targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora tadbirlar ko'rishga e'tibor qaratdilar.



Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining katta qismini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu yoshda insoning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda o'smir yoshlarga e'tibor kuchaytirilgan.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida ham yoshlarga bo'lgan e'tibor yaqqol namoyon bo'ladi, unda quyidagilar aks etgan:

- Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

- Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O'smir shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o'ziga xos imkoniyatlarga egaki, u bazan shaxsning sog'lom munosabatlari va sog'lom turmush tarzini belgilasa, ba'zan esa nosog'lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar o'smirlarda g'ayriqonuniy xulq-atvor kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta'sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Bu esa profilaktik tadbirlarni o'smirning individual -psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borishini taqozo qiladi.

Olimlar olib borgan tadqiqotlarga asoslanib o'smirlarda jinoyat motivlarini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganishda respublikamiz psixologlari tomonidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirilgan. Jumladan M.Davletshin, E.G'oziyev, M.Vohidov, N.Komilova, V.Karomova, N.Safoyev, F.Haydarov, Sh.Do'stmuhammedova, L.Nazirova kabi olimlar tomonidan o'smir psixologiyasi, voyaga yetmaganlar psixologiyasi, o'smirlar xulq-atvorining o'ziga xosligi, o'smirlardagi o'g'ishlar, tarbiyasi o'g'ir o'smirlar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, o'smirlar xulq atvorini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalar o'rganilgan.

Ba'zi tadqiqotchilarning ishlarida deviant xulq-atvor jinoyatni hosil qiluvchi bevosita sabab sifatida qaraladi. Agar deviant xulq-atvor ilmiy nuqtai nazardan chuqurroq o'rganadigan bo'lsak, aynan shu odam nima maqsadda shu harakatlarni amalga oshirganligi aniqlanadi. Unga ko'ra, deviant xulq-atvor - insonni aynan shu jinoyatni sodir etishga undagan va jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirishida jismoniy va aqliy yo'nalganlikning uyg'un ifodasini boshqarib turadigan kuch manbai sifatida namoyon bo'ladi.



Xulq-atvor – insonning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Motiv asosida shakllangan maqsadga ko‘ra, odam har doim o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun biror-bir obyektga yoki manbaiga yo‘nalgan bo‘ladi. (Bu o‘rinda motiv vosita rolini o‘ynaydi)

Jinoiy xatti-harakatlarning shakllanishida asosiy rolni motivga xos ehtiyojlar bajaradi. Inson ehtiyojlari biror-bir narsaga (moddiy yoki ma‘naviy) bo‘lgan ehtiyojni aks ettirishi bilan tashqi dunyoga qaramligini (tobeligini) namoyon qiladi.

Zamonaviy psixologiya fanining asoslashiga ko‘ra, hozirgi odamlarning ehtiyojlari xilma-xildir. Ana shu ehtiyojlarni tavsiflashda uchta asosiy guruhni ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Ijtimoiylashgan organik (fiziologik) ehtiyojlar (o‘zini saqlab qolish, takror ishlab chiqarish va h.k);

2. Moddiy ehtiyojlar;

3. Ijtimoiy ehtiyojlar - ijtimoiy munosabatlarga kirishish orqali bilim va tajriba egallash, ijtimoiy mavqega erishish, tan olinish, o‘zini-o‘zi tasdiqlash, ijodkorlik, hayotning mazmuni va boshqalar.

Ehtiyojlarni qondirish jarayoni davomiylilikni yoki uzoq vaqtni talab qilmaydi. Agar uzoq vaqt talab etilsa, u yo‘q bo‘lib ketadi. Chunki psixofizologik qonuniyatlarga ko‘ra, to‘siq qo‘yilgan ehtiyoj insonda asta-sekin o‘jarlik va agressivlikni hosil qiladi, natijada, odamda tajovuzkorlik yoki agressivlik shakllanadi. Agar ushbu ehtiyojni qondirishning tabiiy yoki qonuniy kafoloti biron-bir sababga ko‘ra imkonsiz (yetarli sharoit bo‘lmaganda) bo‘lsa, uni qondirish hayoliy (yomon, buzuvchi) yoki emotsional shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Oqibatda, bunday odamlar jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalar, o‘zaro munosabatlardagi me‘yorlar, umum e‘tirof etgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarini bilmasligi, anglab yetmasligi yoki e‘tiborsizligi bilan buzishi oqibatida jinoyat sodir etadilar.

Biror bir shaxsning yoki odamlarning turli-tuman harakatlarini kuzatganimizda, xususan jinoiy xatti-harakatlarini o‘rganib tahlil qilganimizda, jinoiy xatti-harakatlar asosan bir emas, balki, bir-biri bilan murakkab va iyerarxik munosabatlarga ega bo‘lgan bir nechta motivlarga asoslanadi. Mazkur motivlar birikmasida subyekt xatti-harakatlarini rag‘batlantiruvchi, uni hayoti va shaxsiga mazmun bag‘ishlovchi yetakchi motivlar mavjudligini ko‘ramiz. Jumladan o‘g‘irlikka yo‘nalgan jinoiy xatti-harakatlarning asosida nafaqat zarur ehtiyojlarni qondirish (og‘ir vaziyat va munosabatdan saqlanish) balki “nufuzli” o‘g‘rilar guruhi oldida o‘z shaxsini namoyon qilish (uddaburonligini ko‘rsatish, qadr topish va boshq.) kabi motivlar yotganligini asoslashga intiladi.

Bundan tashqari, aynan shu sohada olib borilgan tadqiqotlarning tasdiqlashicha, (Bixiveoristlar, freydizm va neofreydizm vakillari) insonning



yetakchi motivlari, aynan tabiiy (fiziologik) motivlari ong ishtirokisiz namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganimizda jinoyatchilar ko'p holatlarda bu jinoyatni nima uchun qilganliklarini tushuntirib bera olmaydilar (tushunmaydilar). Jinoyatning mohiyati to'liq anglanilmagan va jinoiy xatti-harakatda mazmunli yo'nalganlik yo'q.

Ijtimoiy darajada shaxsning o'zini namoyon qilishi (boshqalarni hurmat-e'tiboriga erishish) ijtimoiy mavqeyga ega bo'lishga intilish ya'ni professional yoki ijtimoiy faoliyat sohasida shaxsni tan olish bilan bog'liq aniq ijtimoiy rolni bajarishga erishish demakdir. Ijtimoiy-psixologik darajadagi tan olinish (hurmat-e'tibor qozonish), shaxsiy maqomga ega bo'lish motivi (orzu), ya'ni u a'zo bo'lgan guruhlar: oilada, bir xil ma'lumotlilar o'rtasida, kasbiy yoki faoliyat bilan bog'liq guruh hamda jamoalarda (do'stlar, hamkasblar va boshqalar) darajasida shaxsni muhim ichki doiradan tan olinishga erishish motivi (istagi) bilan bog'liq. Ba'zida, bu guruhga qo'shilishni orzu qilgan biroq, ular bilan aloqa qila olmaydigan kishilar ham bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda jinoyat shu kabi guruhga kirish usulini e'tirof etishga erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu usuldan foydalanishga intilish yoshlar uchun eng xos xususiyatdir.

O'smirlarda jinoyat sodir etilishining muhim sabablari sifatida irsiyat, ijtimoiy muhit va oilada olinadigan tarbiyani aytib o'tish joiz. Voyaga yetib kelayotgan yosh o'smir psixologiyasida tashqi muhitga qiziqish, taqlid qilish, etiborni jalb qildirish xususiyatlari shakllanib boradi. Ma'lumki oila muhitining sog'lomligi, ota-onalar va oiladagi boshqa a'zolarning madaniy, aqliy, ma'naviy va axloqiy barkamolligi bolalalar va o'smirlar o'rtasidagi jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi oldini olishda muhim omil bo'lib hisoblanadi, bolalar va o'smirlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda qator psixologik masalalarga e'tibor qaratish kutilgan natijani beradi.

Ma'lumki inson ijtimoiy munosabatlar qurshovida yashaydi. Ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarning shaxsga ta'siri masalasi ijobiy yoki salbiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Individga ijtimoiy jarayonlarning ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi birinchidan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan ijtimoiy muhit voqea-hodisalari xususiyatlari va shart-sharoitlari mazmuniga ko'ra namoyon bo'ladi. Ya'ni ijtimoiy muhitning sog'lom yoki nosog'lomligi va uning ta'sirchanlik darajasiga ko'ra, individga u yoki bu ko'rinishda ta'sir etadi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun qandaydir ma'noda imkoniyat yaratadi.

Ma'lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim o'rin tutadi. Oilaning bolalarga tarbiyaviy ta'sir doirasi ijtimoiy ta'sir doirasi singari o'ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga murosasizlik, yuksak axloqiy va



ma'naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda kata imkoniyatlarga egadir. Biroq, keyingi yillarda oilada farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, nuqsonlarga duch kelinmoqda. Tabiiyki ushbu muammolar bolalar va o'smirlar xulq-atvoriga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan tadbirlar maqtovga sazavordir. Joylarda foydalanishga topshirilayotgan sport inshootlari, zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim maskanlarining bunyod etilishi, yoshlarimizning bo'sh vaqtlarida shug'ullanishlari uchun turli xil to'garaklarning barpo etilishi bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning namunasidir. Ammo bu sohada hali qilinadigan ishlar ham bisyordir.

Oilada yetarlicha tarbiya ko'rmagan bolalar turmush qiyinchiliklaridan qoqiladi. Turli xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Tarbiyasizlik o'smirni yaxshi o'rtoqlaridan, davralardan ayiradi. Oqibatda o'smir uchun birdan-bir yo'l nosog'lom xulqli o'smirlar davrasiga qo'shilib ketish bo'lib qoladi. Qarabsizki, o'smirda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Oilaviy tarbiyada qo'pollik, andishasizlik, haqorat, do'q-po'pisa va jismoniy jazolash singari usullardan foydalanish ko'pincha bolalar va o'smirlarning uydan qochishiga, biron ish qilib qo'yib ota-onasidan qo'rqqanidan ko'chalarda daydib yurishiga, qayerlardadir tunab qolishiga olib keladi. Bunday bolalar oila muhitiga nisbatan ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyalanish jarayoniga duch keladilar. Oqibatda o'ziga ma'qul bo'lgan oiladan tashqari guruh yoki ko'cha muhitini qabul qiladi. Bu muhit o'zining xarakteriga ko'ra, bolaga salbiy yoki ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Afsuski, nosog'lom muhit psixologiyasiga ega bo'lgan ko'cha muhiti bolalarga ko'p holatlarda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyatchilik xulqining kelib chiqish sabablarini aniqlash eng avvalo u yuzaga kelgan ijtimoiy muhit xususiyatlarini o'rganib chiqishni taqozo qiladi. Chunki, jinoyatchilik xulqini umumiy ko'rinishida oladigan bo'lsak, u biror bir shaxsga xos bo'lgan sub'ektiv hulq-atvor natijasi emas, balki sub'ektiv va ob'ektiv jarayonlar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda ijtimoiy jarayonlarning individual xatti-harakatlarga ta'siri masalasiga oydinlik kiritish zarur bo'ladi.

Jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga asos bo'luvchi omillarni ko'rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda shaxsning ma'naviy jihatdan qashshoqligi masalasiga alohida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Shaxsning ma'naviy qashshoqligi ijtimoiy muhit va shaxs o'rtasidagi murakkab vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan shaxs ijtimoiy muhit voqea-hodisalariga nisbatan ijobiy munosabatini namoyon qiladi.



Shaxsning ijtimoiy va psixologik fazilatlarini ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi. Individ ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirishi jarayonida xulq- atvor normalarini, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy tushuncha va tasavvurlarni, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlarni egallab boradi. Shuning bilan bir qatorda shaxs ijtimoiy muhit munosabatlari va insoniy taqdirning sust kuzatuvchisi bo'lmasdan, o'z turmush tarzini, shart-sharoiti va shaxsiy hayotini o'zi belgilaydi va quradi. Demak, shaxs shakllanishida insonning o'z qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari muhim o'rin tutadi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan shaxs turli xil hayotiy voqea-hodisalar qurshovidan osonlik bilan chiqa oladi. Shuning uchun shaxsning ijtimoiy fazilatlarini, mustahkam va qat'iy hayotiy pozitsiyasini, maqsad va intilishlarini shakllantirish o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishda muhim ekanligini unutmaslik kerak.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o'rganishning ahvoli, jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlari, ularning shaxsi va voyaga yetmagan jinoyatchilarning o'z-o'zini baholash xususiyatlari, g'ayriqonuniy ustanovka va qiziqishlarning voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir etishi hamda bolalar va o'smirlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosini o'rganish yuzasidagi ilmiy tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, jinoyatchilik xulqini izohlashda bir yoqlamalilika yo'l qo'yilgan. Masalan, ayrim tadqiqotlarda jinoyatchilik xulqi sof ijtimoiy, ayrimlarida esa biologik yoki psixologik hodisa deb bir yoqlama talqin qilinadi.

2. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiga xos bo'lgan xususiyatlar sifatida asotsiallik, psixik beqarorlik impulsivlik, o'zgaruvchan va yengil xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, hissiyotga beriluvchanlik, gipertimlik, affektga moyillik va shu kabilar kuzatiladi. Shuningdek, bolalar va o'smirlarning yosh davri inqirozlari xususan, o'smirlar yoshi davri inqirozi, o'tish davri qiyinchiliklari ularning psixo-fiziologik taraqqiyotidagi noturg'unlik, akseleratsiya jarayonlari, pubertat davri rivojlanish xususiyatlari, taqlidchanlik, emansipatsiya (kattalar nazorati va kuzatuvidan ozod bo'lishga intilish), gidonistik (o'zgacha usullardan zavq-shavq olish, lazzatlanish) psixologiyasi, guruhlanish reaksiyasi va qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyasining namoyon bo'lishi va boshqalar xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

3. Jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlardagi gipertimlik, namoyishkorlik, o'zgaruvchanlik va yengil xarakterlilik, emotivlik, xavotirlanuvchanlik xususiyatlari ularda yosh davriga xos bo'lgan reaksiya darajalarining yuqoriligiga sabab bo'ladi. Shu boisdan bolalar va o'smirlar



jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligidan mazmun va mohiyatida yosh davri xususiyatlarining aks etib turishligi bilan farqlanadi.

Zamonaviy o'smirlar xulq-atvorining standart andozasini yaratish, unda o'smirlar jismoniy va psixologik rivojlanishining yoshga xos xamda gender xususiyatlarini, shuningdek, ular taraqqiyotini ta'minlovchi muhim tabiiy-iqtisodiy, bio-fiziologik, ijtimoiy-hududiy, milliy-madaniy, tarbiyaviy-psixologik omillar ta'sirini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarga xos deviant (og'ish, qochish, buzilish) xulq-atvorning shakllanishi aynan shu yoshdagilarning turmush tarzi bilan bog'liq bio-fiziologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va tarbiyaviy-psixologik omillar hamda ularni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlarga bog'liqdir. Shu bois, yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq turli omillar ta'sirini uyg'un va me'yorli kechishini ota-onalar, tarbiyachi-o'qituvchilar, mahalla faollari va boshqa tarbiya uchun mas'ullar o'zaro kengashib, maslahatli hal qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Har bir rivojlanayotgan individ "shaxs" bo'lib rivojlanar ekan, uning ijobiy ruhiyatda o'sishini, holatlarini, fikrlarini, qobiliyatlarini, xato va kamchiliklarini ham e'tiborga olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,
1. G'oziyev E.F "Psixologiya" Toshkent-1994-yil
2. Davletshin M.G.Obshaya psixologiya. Toshkent-2002-yil
3. Karimova V.M.Psichologiya Toshkent-2004-yil
- 4.G. Savriddinova. (2022). Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021.
6. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014.
7. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021.
8. Olimov L.Y. Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar. Buxoro 2023
9. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020.
10. Komilova N.G'. Xulqi og'ishgan yoshlar psixologiyasi // O'quv qo'llanma. - Tashkent, 2017.



11. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. diss. - T.: ToshDU, 1994.
12. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. - Toshkent, 2013.
13. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020.
14. I. Maxmatqulov. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya.
15. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020.
16. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'.O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022.